

Po'lat MO'MIN

BO'LADIGAN BOLALAR



МАЖБУРИЙ
НУСXA

TOSHKENT
"YANGI ASR AVLODI"
2012

84(59)7 - 48. ap08.

UDK: 821.512.133-1

BBK: 84 (5 ʻ36)7

M-11

Mo'min Po'lat. Bo'ladigan bolalar. She'rlar / -T.: «Yangi asr avlodi», 2012. 84 b.

ISBN 978-9943-08-886-3

Bolalarning taniqli shoiri Po'lat Mo'minning ushbu saralangan to'plamida ota-onaga mehr, do'stlik, odob-axloq, mehnat va bilimdonlik, zukko bo'lishga chorlovchi she'rlar o'rin olgan.

Kichik va o'rta maktab yoshidagi aziz o'g'il-qizlar, bu qiziqarli kitob sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

UDK: 821.512.133-1

BBK: 84 (5 ʻ36)7

Rassom **Habibulla Rahmatullayev**
chizgan rasmlardan foydalanildi

HO 40126
291

| | |
|----------|----------------------------|
| 2012/131 | Alisher Navoiy nomidagi |
| 7675 | O'zbekiston MA |

ISBN 978-9943-08-886-3

© Po'lat Mo'min, «Bo'ladigan bolalar». «Yangi asr avlodi», 2012-yil.

*Ey, aziz kitobxonim,
Yetganda kuch-imkonim,
Sizga she'rdasta tuzdim,
Qarzimni biroz uzdim.
Ochig'i, ko'pdir qarzim,
(lekin sira yo'q arzim)
Qolmayin deb ginada,
Quduq qazdim ignada.*

*To'qidim qo'shiq, ertak,
Bular emasdir ermak.
Erinmay o'qib chiqing,
Yaxhisi, mag'zin chaqing.
Eslab yursangiz uni,
Kerak bo'lar bir kuni...*

*Etmang deb aslo taqlid,
Yomonni qildim tanqid.
Ko'p o'rinda maqtadim,
Yaxshilikdir maqsadim.*

*Siz bergan zavqdan toshdim,
Kitobim-ko'nglim ochdim.*

SALOM BERGANLAR

Salomat bo'lsin
Salom berganlar.
Ko'ngil bog'idan
Gullar terganlar.
Bobolariga
«Assalom» degan,
Momolariga
«Achchalom» degan,
Tani-joningiz

Sog' bo'lsin, deya,
Ko'nglingiz doim
Chog' bo'lsin, deya
Salom berganlar
Salomat bo'lsin.
Ishlari doim
Alomat bo'lsin
Eng a'lo ular,
Eng dono ular.





QUSHLAR ERTA UYG'ONAR

Har qachon,
Hamma yerda
Qushlar uyg'onar erta.
Shoxdan shoxga sakrashar,
Oldin-keyin sayrashar.
Bunga odat qilishgan.
Foydasini bilishgan.
Nafas olishib chuqur,
Qilishar chug'ur-chug'ur.
Yurishadi qonlari,
Orom olar jonlari.
Sof havo dengiz misol –
Sho'ng'ishadi bermalol.
O'z tilida so'zlashar,
Yaxshilikni ko'zlashar.
Muhtoj bilmay birovga
Otlanishadi ovga.
Aslida shuning uchun
Mashq qilib,
Yig'ib kuchin –
Hasharotni qirishar.
Elga xizmat qilishar.

Qushlarning orasida
Uchrasa ora-sira –
Landovur – dangasasi –
Qotishadi ensasi...
Qo'shishmaydi qatorga,
Chiqarishar beorga.

Qushday uyg'ongan erta
Sog'lomdir hamma yerda.

SEN ERTA TURIB

Tonglar zavqin sur
Sen erta turib.
Puxta reja qur
Sen erta turib.

Havo musaffo,
Artilgan go'yo.
Qilaver huzur
Sen erta turib.

Chiniqsang asta
Bo'lmaysan xasta.
Maydonda yugur
Sen erta turib.

Kutar maktabing,
Ochilar ta'bing.
Shirin xayol sur
Sen erta turib.

Chiqqan quyoshga,
Keksaga, yoshga
Salomga ulgur
Sen erta turib.

**O'QITUVCHI BERDI-DA SALOM,
SUHBATINI ETTIRDI DAVOM:**

– O'qituvchilik
O'rgatish demak,
O'rgatish uchun
O'rganish kerak.
Gul ochilganda,
Gektar va gektar,
Bolari undan
Olar-da nektar, –
So'ng uyasiga
Keltiradi bol.
O'qituvchi ham
Bunga bir misol.
Bilim bolini
Yig'olib men ham
Bolalar bilan
Ko'raman baham.
Chuqur bo'lsin deb
Darsim mazmuni,
Maktab borishdan
Oldin har kuni,
Qarang, o'zim ham
O'rganaman dars.
O'qituvchiga
Bu farz va qarz.
Men ham bu kasbni
Yurakdan sevdim.

Uning fayri-yu,
Qimmatin sezdim.
O'qitganlarim
Har bir sohada:
Zavod, fabrika,
Dalam vohada...
Bittasi olim,
Oshgan o'zimdan,
Ba'zi birlari
Yurar izimdan.
Har bir shogirdim
Berganda salom,
Hurmat-izzatdan
Olaman orom.
Qarang, zo'r quvonch
Qurshab shu mahal,
Ustoz ko'zimga
Ko'rinar har gal.
Shogirdlik o'xshar
Estafetaga,
Bugungi shogird
Ustoz ertaga.
Ulug' istagim
Shundaydir, xolos:
«Har bir o'quvchim
Bo'lolsin ustoz».

QIZALOQLARMIZ

Qizaloqlarmiz,
Eng quvnoqlarmiz.

Rosayam sho'xmiz,
Tinimi yo'qmiz.

Yuramiz quvnab,
Kapalak quvlab.

O'yin tushurmiz,
Qushday uchurmiz.

Xushdir vaqtimiz,
Kulgan baxtimiz.

Qizaloqlarmiz,
Eng quvnoqlarmiz.



INTILAMAN MAQSADIMGA

Intilaman

Tog'lar sari
Borgan sari.

Cho'qqilarda

Bulut bo'lsam,
Burgut bo'lsam.

Ulg'ayaman,

oshiqaman,
kuch yig'aman.

Dam olaman

qiyalarda,
soyalarda.

Yuksaklarda

ruhim o'sar,
fikrim o'zar.

Qani endi,

chiqsam tikka
yuksaklikka.

Yuragimda

tilagim bor,
Toleyim yor.

Intilaman

Maktabimga,
Maqsadimga!

ONA MEHRI

Oyim ketdi bozorga,
Olib qoldim singlimni.
Toki oyim kelguncha
Tinchitmadi ko'nglimni.
Bir soat ham o'tmayin
Oyisini qo'msaydi,
Ovunmaydi sirayam,
Unga-bunga ko'nmaydi.
Ko'pdan beri asragan
Shokoladim bor edi.
Ovunar deb o'yladim
Singlinga bersam endi.
Uni asta uzatdim,
Ko'rsatib mehr-u himmat.
Unga ta'kidlab qo'ydim
Bu shokolad – eng qimmat!
Qimmat bilan ishi yo'q,
Himmat bilan ishi yo'q!
Oyisini ko'riboq
Birdan bo'ldi xushchaqchaq.
Oyisini achomlab
Bag'riga singib ketdi.
Qarang, onaning mehri
Barchasin yengib ketdi.



SIZ BIZNI DEYSIZ, BIZ SIZNI DEYMIZ

Sizlar ota-onamiz,
Bizlar-chi farzand.
Rosa yayrab ketasiz,
Biz bo'lsak xursand.

Yetkazmoqni istaysiz
Bizni voyaga.
Oftob o'tsa tortasiz
Salqin-soyaga.

Gulni o'stirgan misol,
Bizni ayaysiz.
Go'yoki bizlar uchun
Ishlab, yashaysiz.

Ko'rinmay qolsak agar,
Zumda izlaysiz.
Ovutib erkalaysiz,
Goho sizlaysiz.

Bardoshlisiz shunchalar,
Ota-onalar.
Eshitasiz bizni deb
Ba'zan ta'nalar.

Gap ochig'i, bizlar-chi,
Bir xil emasmiz,
Sizning g'amxo'rligingiz
Teng payqamasmiz.

Sizni nohaqdan-nohaq
Ranjitamiz goh.
Ba'zimizga bilinmas
Chekkaningiz oh...

Oramizda uchraydi
Nodonlar hanuz.
Qadringizni bilishga
Ochsaydilar ko'z.

Chaqiraman ularni
Sizni sevishga,
G'amxo'rolig-u mehringiz
Dildan sezishga.

Hamma joyda, har qachon
Siz bizni deysiz.
Ishoninglar, farzandlar
Biz sizni deymiz.

UMID BILAN YASHAR BOBOM

Mening to'qson yashar bobom,
Umid bilan yashar bobom.
Qaridim deb o'tirmaslar,
Yumushdan yuz o'girmaslar.
Orzulari hali katta,
Yuzga kiray deb, albatta,
Kuymanarlar uni-buni,
Odatlari shu har kuni.
Yaxshilikni izlaydilar,
Bobolarin eslaydilar.
Hunarleri ekan kulol,
Yashabdilar doim halol.
Hunarimni qilgil davom
Gapirarlar menga bobom.
Ko'ringanni bilib-bilib
Yuradilar duo qilib.
Yomon so'zdan yiroqdirlar,
Uyimizga chiroqdirlar.
Dillarida ulug' maqsad,
Maqsadlari berar madad.
Mening to'qson yashar bobom,
Umid bilan yashar bobom.

KEKSALAR YONIDAN O'TGANDA

Keksalarning oldidan
Salom bermay o'tsa kim,
O'tsa jim,
Ko'rsam hamki men uni
Har kuni
Tanimayman,
Odobli deb sanamayman...
Ich-ichimdan...
G'ijinaman...
Bo'laturib devday sog'lom
Demasa-ya ul assalom!
Bor kallasi-o'z miyasi...
G'ovlaganmi tarbiyasi?
Yoki beti charimmikan?
Yo es-hushi yarimmikan?
Ular bizning bobomizdir,
Momomizdir.
Olaylik-da duosini,
Duolardan davosini.
Ular bari tabarrukdir,
Eng buyukdir.
Pisand qilmay,
Xursand qilmay
O'tib ketmoq
Beandisha yo'l tutishdir,
O'zligini unutishdir.
Niyatim shul, erta-yu kech
Bunday holni ko'rmasam hech!

**NONVOY O'Z NONIDAN
SO'ZLAR DIL-JONIDAN:**

– Non juda tabarruk,
Taomdir eng suyuk.
Non so'zi eng aziz,
Non o'zi eng laziz.
Turaman ertalab
Tandirga o't qalab,
Non yasab xamirdan
Pishirsam tandirda
Po'rsildoq issiq non,
Kulchalar, –
Gulchalar
Yesangiz huzurjon.
Tarqalsa non isi
Yozilsa dasturxon,
Chiroydir unga non,
To'qchilik belgisi.
Mezbonning yuzidir,
Hurmatning o'zidir.
Non bilan yurt obod,

Non bilan ellar shod.
O'xshaydi non gulga
Tegmas hech ko'ngilga,
Shunday der ustozlar:
Non aziz – non halol,
Nonni kim e'zozlar
Issiqdir rang-ro'yi,
Balanddir obro'yi.
Nonni kim etsa xor,
Nonga u bo'lar zor,
Nonning bir uvog'i,
Go'yo ko'z qarog'i.
Non aziz – non halol,
Bo'lmasin hech uvol.

Bu kasbni sevdim men,
Qadrini sezdim men,
Har tong non yopurman,
Rizq-u baxt topurman.

NON OLIB KELDIM

Yolg'on emas – chin so'zim,
Magazindan bir o'zim
Ko'cha chetidan yurib,
Ancha narsani ko'rib,
Qaytimni yo'qotmasdan,
Kuchukka tosh otmasdan,
Olib keldim issiq non,
Uyga kelganda mehmon!



DONO VA MEHRIBON SHIRINSO'Z BOG'BON:

– Do'stlarim,
Sizlardan
Iltimosim bor.
Yaxshisi,
Kelinglar –
Bog'imga bir bor.
Eshitgandan ko'ra
Ko'rgan derlar soz.
Gullarim etayin
Yo'lga poyandoz.
Balki so'zlarimni
Daraxt barglari
Shivirlab,
Shitirlab,
Ma'qullar bari.
Men bo'lsam ota-yu,
Daraxtlar farzand.
Barcha nihollarga
Yuragim payvand.
To'rt fasl to'kaman
Peshonamdan dur.

Niholga sochaman
Ko'zlarimdan nur.
Bog'im yashnashidan
Ko'nglingiz o'sar.
Shoxlari qo'l misol
Mevasin cho'zar.
Mevamdan yeb ko'rib
Qilinglar rohat,
Menga kifoyadir
Desangiz «rahmat!..»
Bobomlar so'zini
Eslayman harvaqt:
Derdilar:
– Daraxt
Keltiradi baxt.
Kimki bog'ni boqar,
Eliga yoqar.
Qarisam-da ko'pdir
Ezgu – odatim,
Yurtimni bog' qilish
Orzu niyatim.

DO'STLIK SHARTIDAN

Do'sting agarda
Bo'lsa serzarda, –
Sen unga doim
Bo'lsang muloyim,
Tajang davridan
Tushar hovridan.
Uyalib o'zi
Kuladi ko'zi.

Zardaga zarda
Qilsang agarda –
Do'stlik chilparchin
Bo'lmog'idir chin.
Do'stni yupatib
Goho yumshatib –
Yurguchi marddir,
Do'stlikda shartdir.

DALALARDAN GUL TERDIK

Ochilgan gul, g'unchalar,
Nari ketib bo'lmaydi.
Juda ko'pki shunchalar,
Sanab yetib bo'lmaydi...

Dalalardan gul terdik,
Bog'chamizga keltirdik.

Ular rosa chiroylik,
Shoshib qoldi ko'zimiz.

Qarang, oftob nurida
Gulday yondi yuzimiz.

Dalalardan gul terdik,
Bog'chamizga keltirdik.

Gullar bizni ko'rganda
Ochilgandan ochildi.

Qahqahamiz chamanning
Chiroyini oshirdi.

Dalalardan gul terdik,
Bog'chamizga keltirdik.



17

2012/31

7675

Alisher Navoiy

nomidagi

O'zbekiston MK

BO'LADIGAN BOLALAR

Bo'ladigan bolani
Bilsa bo'lar ko'zidan.
Bo'ladigan bolani
Bilsa bo'lar so'zidan,
Rangi-ro'yi, yuzidan.
Bo'ladigan bolakay
Fazilati bir talay:
Ota-ona izmida –
Yurar ular izidan.
Berganmisiz e'tibor:
Bo'lar biror iqtidor.
Razm soling ularga,
Qiziqar fan, hunarga.

Bo'lar yaxshi qiliqlik,
Seziladi iliqlik.
Oyog'idan chaqnar o't,
Yuragida bo'lar o't.
Bo'ladi tiyrak,
Ziyrak.
Bo'ladigan bolalar
Ma'lum bo'lar boshidan,
Yo kichiklik yoshidan.
Bo'ladigan bolalar
Nihol erur – ko'karsin,
Bo'ladigan bolalar
Yurtimizda ko'paysin.

DO'STIM XAFA KO'RINDI

Hali ko'rsam og'aynim
Ancha xafa ko'rindi.
Xafaligin har qalay
Yashirishga urindi.

Yoki biror a'zoyi
Lat yeganmi, og'tirmi?
Yoki uning shunchalik
Tashvishlari og'irmi?

Qiziq-qiziq gapim ham
Ta'sir etmas o'ziga.
Ne sababdan, bilmadim
Kulgu kelmas ko'ziga?

Do'stga yordam bermasam
Nima qilib yuribman?
Hozir xafa holiga
Sherik bo'lib turibman.

MENGA YOQADI QANDDAY

*(Bir oshnam maktab yonida
yashashimni ko'rib achinganiga
javob).*

To'g'ri, hovlimning yoni –
Maktab, uning maydoni.
Bu yer – bolalar koni,
Bilmayman senga qanday?
Menga yoqadi qandday.

Bir-birining quvlashi,
Terlab futbol o'ynashi,
Gol urganda quvnashi,
Bilmayman senga qanday?
Menga yoqadi qandday.

Goh tanaffus bo'lgan chog',
Ag'darilgan bo'lar tog'
Shovqin-suron hammayoq,
Bilmayman senga qanday?
Menga yoqadi qandday.

Darsga kelish, qaytishlar,
Sho'x-sho'x qo'shiq aytishlar,
Ba'zan xiyol daydishlar...
Bilmayman senga qanday?
Menga yoqadi qandday.

Hammayoq maktab bo'lsa,
Bola o'ynasa, kulsa,
Mayli qiy-chuvga to'lsa...
Bilmayman senga qanday?
Menga yoqadi qandday.

SO‘ZNING QAYMOG‘I

Ajoyib so‘z bor,
Nomi-chi, qaymoq.
Hatto yoqimli
Bu so‘zni aytmoq.
Sutning qaymog‘i
Yoqar tomoqqa.
So‘z qaymog‘i-chi,
Yoqar quloqqa.

Qarang, bu so‘zda
Zo‘r ekan ma‘no.
Fikr qaymog‘i
Undan ham a‘lo.
Qalbing sutdayin
Bo‘lsa pok – oppoq,
Doimo bo‘lar
So‘zingda qaymoq.

«SIZ» DEMOQLIK – SIYLAMOQLIK

«Sen» deyish ham,
«Siz» deyish ham
Bir og‘izdan chiqadi.
«Siz» o‘rniga
«Sen» demoqlik
Eng ojizdan chiqadi.

«Sen» demoqlik –
U ne chog‘lik
Pastga urish o‘zini.
Bamisoli
Qaymog‘i bor
Sizlashganning so‘zini.

O‘z onosin
«San» deb yurar
Bilsam bitta bolajon...
Hech yaxshilik
Kutmagayman
Undaylardan hech
qachon.

Siz demoqlik
Siylamoqlik
Hikmatga boy aslida,
Ko‘ngillarda gul ochilgay
Yilning to‘rtta faslida.

O'YNAB KELSAM, O'YLAB KELSAM...

Xonamda ko'p
O'tirmasdan,
Hadeb yozib,
O'chirmasdan,
O'z-o'zimdanda
Bo'lmay xunob,
O'z-o'zimga
Bermay azob,
O'ynab kelsam
Chiniqaman,
O'ylab kelsam
Tiniqaman.
Asablarim
Yaxshilanas,
Ruh-ta'blarim
Yangilanas.
Ko'zim nuri
Ravshanlashar,
Nafaslarim

Ravonlashar.
Sho'xligimday
Shar-sharalar,
Soy sohili
Keng daralar.
Gullar ko'rk
Ko'zga davo,
Yog'day yoqar
Toza havo.
Kuch qo'shilar
Yurishimdan,
Fikring o'sar
Ko'rishimdan.
Charchoqlarim
Chiqib ketar
Chala darsim
Tezda bitar,
O'ynab kelsam,
O'ylab kelsam.



BAJARAMIZ TEZLIKDA

Oyim, dadam ishga ketar,
Buvim bilan qolamiz.
Buvijonim gaplariga
Doim quloq solamiz.

Buyursalar qanaqa ish
Bajaramiz tezlikda.
Shunda bizni maqtaydilar:
– Ikkovi ham eslik-da.

Men hovlimni supuraman
Changitmasdan har safar.
Supurmasdan oldiniga
Uka Zafar
Suv separ.



KITOBIM QO'LIMDA

Kitobim qo'limda,
Qaranglar, qaranglar!
O'qisam so'zlari –
Tilimda jaranglar.

Kitobim qo'limda,
Ma'nosi ko'nglimda.

Kitobim ajoyib:
Juda ko'p siri bor,
Eng yaxshi odoblar
Yozilgan yeri bor!

Kitobim qo'limda,
Ma'nosi ko'nglimda.



KERAKDIR MASHQ – O'RGANISH

Taxtachaga oddiy mixni
Qoqolmadi bir bola,
Ko'inishi ajabtovur,
Misoli botir bola.

Bolg'ani bir urgan edi,
G'iz otilib ketdi mix.
Yoki bolg'a tegdimikan?
Qo'lin ushlab dedi «eh».

Taxtadami deya ayb
Ko'rdi uyoq-buyog'in.
Bolg'a ham soz, mix ham o'tkir
Qo'ying gapning uyog'in...

Har bir ishga mashq kerakdir,
Zarur uquv, o'rganish.
Bilar-bilmas ish tutganga
Hech gap emas o'tanish.

OFTOB ZO'R TABIB

Qilayin ta'rif,
O'tob zo'r tabib.
U barcha joyga
Hammaga foyda.
Bilsangiz agar
Go'yo sehrgan.
O'simlik – tekin
Nurin shimirar,
O'sar, semirar.
Oftob hissasi –
Ko'pdir, qisqasi,
Uchrasa betob
Davolar oftob.
Topib turli yo'l
Qiladi ukol.
Nurdan ignasi.
Eng ingichkasi.
Og'ritmas sira,
Mohir hamshira.

Dorisi qiziq,
Dorisi issiq.
Vitamini nur,
Maza va huzur.
Barcha hujayra
Oladi bahra.
Virus va mikro
Berolmaydi tob.
Kuyib bo'lar kul.
Yo'qolar butkul.
Har bitta bola
Qilib havsala,
Yozda ayniqsa,
Oftobga chiqsa,
Tani chiniqar,
Fikri tiniqar.
Hech bir kasallik,
Xoh dangasalik,
Qilolmas hamla,
Biladi hamma.

TURNALARGA QOYILMAN

Ey, turnalar,
 Turnalar,
Bormi maktab,
 sinfingiz?
Meni soldi hayratga
Intizom-tartibingiz.
Qator bo'lib borasiz
Sira chetga chiqmasdan.
Ustozingiz ketidan
Uchasiz oshiqmasdan.
Shu uchishda samoda
Sayraysiz chug'ur-
 chug'ur.

Tushunmasman,
 ehtimol,
Ma'nosi bordir chuqur?
Jon-jon deya uchardim,
Bo'lsaydim safingizda.
Ta'lim olgim keladi
Sizning maktabingizda.



GUL KO'TARGAN QIZALOQ

Gul ko'tarib boradi
Uyi tomon qizaloq.
Guldastasi rang-barang,
Yashil, pushti, qizil, oq.

Bir olam zavq dilida,
Shoshib-shoshib boradi.
Boshqa yo'lovchilardan
Oshib-oshib boradi.

Oyisiga guldasta
Sovg'amikan bayramga?
Hamma havas qilardi
Unday dili xurramga.

Gul ko'tarib ketishi
Tortdi zavq-u mehrimni,
Guldastaga qo'shimcha
Sovg'a qildim she'rimni.



KAMALAK QO'SHIG'I

Kamalak ko'rinsa
Yangidan,
Quvonib ketaman
Rangidan.

Kamalak o'xshaydi
Nimaga?
Kamalak o'xshaydi
Kemaga.

Nimaga o'xshaydi
Kamalak?
Misoli uchganday
Kapalak.

Kamalak nimaga
O'xshaydi?
Osmonda juda oz
To'xtaydi.

Kamalak quyoshning
Aksidir.
Shu sabab jilvali,
Yaxshidir.

Kamalak ko'rinsa
Yangidan,
Quvonib ketaman
Rangidan.

NAVRO'Z SHAROFATI

Yurakdan so'z
Qaynar navro'z
Saxovati -
 Sharafiga,
Qarang, bugun
Chindan gulgun
O'lkamning to'rt -
 Tarafiga.
Vatan qo'ynin
Kulgi-o'yin
Tutib ketgan
 Hammayoqni,
Barcha shodon
Aylar bayon
Yurakdagi
 Ishtiyiqni.
Bulut aro
Goho-goho
Yalt-yalt etar
 Kamalaklar,
Tong azonda
Dosh qozonda
Suziladur
 Sumalaklar.

Momolarim,
Bobolarim
Qilar duo:
 Bo'l, deb halol,
Oshiyoning,
Osh-u noning
O'zingniki
 Shudir iqbol.
Xalqim tinmas,
Beli sinmas,
Bo'lsin tillo
 Ostonasi,
Ikki dunyo
Yuzda ziyo
Yaraqlasin
 Peshonasi.
Elim kulib,
Ko'ngli to'lib,
Do'stin chorlar
Dasturxonga.
O'zbekiston
Oqshom-u tong
Yoygay dovrug'
 Keng jahonga.



HAR YIL KO'KLAM KELADIR

Har yil ko'klam keladir,
Yana ko'rkam keladir.
Ko'klam bilan, albatta,
Bor jonzot harakatda.
Degandayin ha, daydi,
Shamol bulut haydaydi.
Bulut qochib yig'laydi,
Ariqqa suv sig'maydi.
Bo'yin sunib shamolga
Sovuq qochar shimolga.
Chumolilar tinmas hech,
Bekorchi ko'rinmas hech.
Nihollar yozar kurtak,
Mo'ralaydi boychechak.
Iliqlashar harorat,
Har yon rohat-halovat.
Bag'ini keng ochar yer,
Ishlagandan chiqar ter.
Har yil ko'klam keladir,
Yana ko'rkam keladir.



YASHIL BARGLAR

Yuraklardan –
Kurtaklardan –
Unib chiqqan
Yashil barglar,
Ahil barglar,
Gul, mevasin
O'z egasin
Ardoqlagan
Va saqlagan,
Shoxchalarda
O'nglardasiz,
Chaplardasiz –
Saflardasiz,
Yashil barglar,
Ahil barglar,
O'simlikka
Libosdirsiz,
Naki libos
Asosdirsiz.
Ildizlarga
Ulangansiz,
Quyosh ichib
Turlangansiz.
Bog'larimni,
Tog'larimni

Ko'm-ko'k etgan,
Ko'fhlik etgan –
Yashil barglar.
Asl barglar.
Soyangizda
Olsam nafas,
Yayrar qalbm –
Ko'krak qafas.
Changi-g'uborni
Quvay sizdan,
Yasharayin
Mayin yelni
Quvnay sizdan.
Sehrlagan,
Qo'shiq ayt deb
Shivirlagan,
Asl barglar,
Yashil barglar.
Yuzingizga
Surtay yuzim,
Parvarishlar
Etay o'zim,
Yashil barglar
Asl barglar.

CHAMANZOR CHIROYI

Bir gullar bor koʻrgan koʻzlar
Qamashar rosa.
Turfa gullar bir-biriga
Yarashar rosa.

Har bir tup gul oʻz joyida,
Har yon orasta.
Chamanzordan ketging kelmas, -
Boqib havasda.

Kirgan odam toʻyar rosa
Gullar hidiga.
Qoyil qolar juda-juda
Bogʻbon didiga.

Nazarimda yetishmasdi
Nedir gulzorga.
Hayron edim, kelolmasdim
Biror qarorga.

Bir toʻp bola gulzor sari
Yoyildi qushday.
Vujudimda taraldi zavq
Eng shirin tushday.

Keng chamanzor toʻldi zumda
Qoʻshiq, qiy-chuvga.
Goʻyo gullar tushib ketdi
Oʻyin-kulguga.

Kulib turgan gullar hozir -
Yangitdan kuldi.
Chamanzorning chiroyidan
Soʻng koʻnglim toʻldi.

OCHILDI GULIM

Ochildi gulim,
Yoqimtoy-so'lim.

Olovday rangi,
Chiroyda yangi.

Ko'zim to'ymaydi,
Boq deb qo'ymaydi.

Kulib muloyim
Maqtarlar oyim:
Gul ekan qo'ling,
Gul bo'lsin yo'ling.

Ochilsa gulim
Ochilgay ko'nglim.

SUMALAK PISHARDI

Hovlida tong chog'i –
Azonda,
Sumalak pishardi
Qozonda.
Qiy-chuvlar chalinar
Quloqqa,
To'nkami qalashar
O'choqqa
Sumalak ko'pchilik
Mehnati,
Yo'q uning hech kimga
Minnati.
Kelganlar turar-da
Navbatda,
Sumalak kovlaydi
Albatta.
Momolar udumi,
Qisqasi,

Qo'shilgay hammaning
Hissasi.
Shunda u pishar-u
Quyular,
Shunda u eng shirin
Tuyular.
Bahorning eng tansiq
Ovqati,
Bor emish jenshenning
Quvvati.
Sumalak suzilar
Barchaga,
Yetar u qanchadan-
Qanchaga.
Mehr olar odamlar –
Odamdan,
Sumalak darakdir
Ko'klamdan.

MAQTANCHOQ BO'LAR QANDOQ?

Avvaliga maqtanchoq
Bo'lar biroz xushchaqchaq.
Ish desangiz erinib,
Yurar doim kerilib.
Bir belgisi bor yana:
Bo'ladi mahmadona.
Ko'zlari jovdiraydi,
Baribir dovdiraydi.
Ochig'ini aytayin.
So'zida bo'lmas tayin.
Laqmani ishontirar,
O'zini quvontirar.
O'zgalarni maqtasang,
Qulog'i bo'lar garang.
G'o'r tomoni ko'p, ammo
O'zini sanar dono.
Judayam og'zi chopar,
Yo'q yerlardan gap topar.
Maqtanchoqning eng oxir
Og'zi-yu tili og'rir...

YARASHGANI YARASHDI

Arazchilar yarashdi,
Yarashgani yarashdi.
Arzimagan bitta gap
O'rtoqlikni qildi chap.
Ikki dil vayron endi,
Ko'pchilik hayron endi.
Arazlashdi shunchalik,
Tugadi salom-alik.
Bo'lmay deb yalinmachoq,
O'tishar solib qovoq.

Uni qarang-ki uni
 Tugadi araz kuni:
Aybin yuzga solishmay,
Gap talashib-olishmay
Qamti kelib qolishdi,
 Jilmayib qo'l olishdi.
Tushdi ko'zi ko'ziga,
Kelishdimi o'ziga?
Jo'rttaga-yu jo'rttaga,
 Hech kim tushmay o'rtaga
Ikki o'rtoq yarashdi,
Mehr bilan qarashdi,
Yarashgani yarashdi.

HAFSALA HAQIDA SHE'R

Hafsala-yu hafsala,
Juda muhim masala:

Kimda bo'lsa hafsala,
Ishi qolmaydir chala.

Kimda bo'lsa hafsala,
Chiqar qiyin masala.

Kimda bo'lsa hafsala,
Obod bo'lar bog', dala.

Kimda yo'qdir hafsala
Ishi doim dabdala...

Hafsala-yu hafsala,
Juda muhim masala.

KECHIRIM SO'RASH

Yanglishar derlar
Dono ham hatto,
Bilib bilmasdan
Kim qilsa xato,
Og'zidan yomon –
So'z chiqsa goho,
Bu gunohini
Sezgan avvalo –
O'sha zahoti
So'rash kechirim,
Judayam a'lo,
Rosa bejirim.

Ko'ngildan xijil
Tarqaydi darhol.
Yuz-ko'zlar esa
Ko'rinar xushhol.
Gina-kudurat
Bo'ladi unut.
Quyosh chiqqanday
Tarqalib bulut.
Kechirim so'rash
Eng mardning ishi,
Yog'sin ularga
Elning olqishi.

QIZG'ANCHIQ VA SIRPANCHIQ

Bo'lar ekan sirpanchiq,
Kelib qopti qizg'anchiq.
•Yolg'iz o'zim atayin
Bir sirpanchiq otayin, –
Deb o'ylabdi qizg'anchiq.
Buni sezmish sirpanchiq.
Qizg'anchiqni tanibdi,
Sanimi, deb yanibdi.
Muz sirpanchiq chalgancha
Yotar ekan chalgancha...

UKAM UXLAMOQDA

Ukam uxlamoqda,
Jim bo'linglar, jim.
Sekin gapirsin-ey,
Shovqunlagan kim?
Ukam uxlamoqda
Rosa miriqib,
Peshona, yuzidan
Dur terlar chiqib.
O'z-o'zidan goho
Qo'yar qimtinib.
Eh, qanday maza-ya
Uxlamoq tinib.
Pish-pish nafas olar

Burunchasida.
Bundayin chiroy yo'q
Gul g'unchasida.
Bunchalar shirin-ey
Ukam uyquasi.
Og'zidan taralar
Ona sut isi.
Beshikka suyanib
Mizg'iydi oyim,
Ularni qo'riqlab
Yuraman doim.
Ukam uxlamoqda
Jim bo'linglar, jim.



OLTI ALISHER

Yashar bizning ko'chada
Olti Alisher.
Yozmagandir ulardan
Bittasi ham she'r.

Birinchi Alisher-chi,
Qatnar maktabga,
O'qish, odobi yaxshi,
Kiradi gapga.

Ikkinchi Alishervoy
Semiz-baqaloq,
Ismi bekor qo'yilgan,
O'ta maqtanchoq.

Boshqa Alisher esa,
Juda ham chaqqon,
Futbol bo'lsa bo'lgani
Unga har qachon.

To'rtinchi Alisherni
Ko'rganlar bordir,
O'zi novchadan kelgan,
Qo'rqmas-u botir.

Beshinchi va oltinchi
Kichkina hali,
Yozish uchun ularni
Keb qolar gali.

QOCHIB KETDI

Bir o'quvchi cho'chib ketdi,
Tanaffusda qochib ketdi.

Yo qochdimi tobi uning?
Birdan rangi o'chib ketdi.

Xayollari g'uv-g'uv ari,
Har tomonga uchib ketdi.

Olib so'mka-paltosini,
Go'yo tezda ko'chib ketdi.

Bajarmabdi uy ishini,
O'z sirini ochib ketdi.

O'qituvchi so'raydi deb
Darsdan ura qochib ketdi.



NA MAKTABDA, NA UYDA YO'Q

Bir o'quvchi maktab ketgan,
Maktabda yo'q.
So'rashgandi hatto uyi
Tarafda yo'q.

Onajoni darsga ketgan
Deya o'ylar.
Maktabda-chi, uni uyda
Deya so'ylar.

Muallimi jo'g'rofiya
Darsin o'tar.
Uni esa bo'm-bo'sh yotgan
Parta kutar.

Na uyda yo'q, na maktabda,
Qayda bo'lar?
Bu yurishi ayting kimga
Foyda bo'lar.

Boshqalarni aldadim deb
Lo'qdir ko'zi.
Sezarmikan aldanganin
Uning o'zi...

DEVORDAN OSHAR U...

Bir bola bor kechikib
Darsiga shoshar.
Qolib maktab eshigi
Devordan oshar.

Kelib devor tagiga
Qarar har yonga,
Oldin otar so'mkasin
Hovli tomonga.

O'g'ri kabi devorga
Chiqar intilib,
Kiyim-boshi gohida
Ketar yirtilib.

Qoyilmisiz, deganday
Do'stlariga yo,
Minib olib devorga,
Maqtanar go'yo.

Har kun devor oshadi,
Shu alfozda u,
Osholmagan sinfdan
O'tgan yozda u...

SHUNDAY IKKI BOLA BOR

Bir bola bor yoqimtoy,
Odati unga chiroy.
Ishlash uchun shaylanib,
Goho hovli aylanib –
O'ziga ish topadi,
Gullar tagin chopadi.
Kattalarga qarashar,
Havas qilsa yarashar.
Yana bitta bola bor,
Odatida ola bor...
Buyurganin unutar,
Yasama kasal tutar.
Bor o'zini yo'q qilar,
Ko'zlarini lo'q qilar.
Hamma joyda erinar,
Ish o'rniga kerishar.

Shunday ikki bola bor,
Berib yuring e'tibor.



BESHGA «5», IKKIGA «2»

Yetti bola qaytar maktabdan,
Beshtasi-chi, to'xtamas gapdan.
Bugun o'tgan darsdan so'zlashar,
Yana har xil reja ko'zlashar,
Ko'ngillari juda ham quvnoq,
Oyoqlaridan chaqnaydi chaqmoq.
Har bir ishga ko'rinishar shay,
Go'yo yutgan futbolchilarday.
Kundagiday olishgandir «5»,
Mana bunday bo'ladi o'qish.
Ikki bola bo'ynini qashib,
Kelar edi loyday bo'shashib.
Ancha ma'yus ko'rinar tarzi,
Qo'ltig'idan tushgan tarvuzi.
Yutqizganday go'yo futbolda,
Zo'rg'a kelar ikkovi yo'lda...
Bugun darsda, qarang, ikkovi -
«2» olgan - yurishmay ovi.

Kimlar yutgan, kim yegan dakki:
Beshga «5»-u, ikkiga «2».

HAZILDAN KETDI ZIL

«Hazilkashlik,
Bu - dilkashlik»,
Deb do'stlarin
Turtib ketar.
Gohida bo'r
Surtib ketar.
Burunlarni
Chertib ketar.
Ba'zilarni
Jerkib ketar.

Hazil deya
Darsdan qochar.
Hazil deya
Devor oshar.
O'sha bola
Tushdi qo'lga.
Tusharmikan
To'g'ri yo'lga?
Kimdir turtdi.
Topib o'rnin.
Kimdir atay
Chertdi burnin.
Yuziga kim
Bo'rdan surdi.
Tomoshani
Hamma ko'rdi.
Hazillardan
Ketdi u zil.
Qay ahvolda
Ekan hozir?

YOLG'ON GAPIRIB QO'YDIM...

Yolg'on gapirib qo'ydim,
O'z qalbim o'zim o'ydim.
Bilmay qolibman o'zim,
Chiqib ketibdi so'zim.
Chiqqan so'z,
Otilgan, o'q
Qaytarishga iloj yo'q.
O'zimdan katta odam,
Laqqa ishondi u ham.
G'ashlik dilim tilmoqda.
Qanday qilib qutulay
Hijolatman butunlay

Hech odatim yo'q edi,
Nima qilayin endi?
O'z o'timda yonaman,
O'ylasam uyg'onaman.
Ezilaman yana ham,
Bo'laman o'sal-mulzam.
So'ramang nimaligin,
Aytmayman lekin tegin.
Yolg'on gapirib qo'ydim.
O'z qalbim o'zim o'ydim.

O'QUVCHI «U» – UYQUCHI

«U» ismli o'quvchi
Rosa-rosa uyquchi.
Yigirma to'rt soatda
Xo'sh, uyquga odatda –
Qancha soat ketadi?
Lekin «U»ning uxlashi
O'n yettiga yetadi,
Ko'plarning kelar g'ashi,
Hamma choy ichganida
Uxlaydi ichkarida.
Ona o'g'lin g'amin yer:
«Qo'yinglar, uxlasin», der.
Go'yo aqli osharmish.
Bir ilojin qilsa-yu,
Yo'lda ham uxlasa u...
Fursat topib uxlaydi,
Uyquchiga o'xshaydi.
O'xshamaydi g'irt o'zi...
Doim uyquda ko'zi.
Yoki uyqu mazali?
Yoki bormi kasali?
Tanaffusda bir kuni

Partasiga bosh qo'yib,
Xurракni baland qo'yib,
Urar edi uyquni...
Ko'rib hayron qilishdi,
Suratini olishdi.
Gapni qilay xulosa,
Shu zaylda uxlasa,
Tanda chiniqmay muskul
Sog'lig'i bo'lar mushkul!
Qolib ketar o'qish, ish,
Ko'payar talay tashvish.
Aytdim aybin bir qismin,
To'liq yozmasdan ismin,
«U» ismli o'quvchi
Hamma bildi, «uyquchi»...
El ichida zo'r gap bor:
«Har ishda zarur meyor».

BO'LAR EKAN KULMASVOY

Eshitmabsiz hoynahoy,
Paydo bo'пти Kulmasvoy.
Qovoq solib erta-kech
Jilmayishni bilmas hech.
Peshonasi tirishib,
Basharasi burishib,
To'msayib
Ham xo'mrayib
Yuraverarmish jiddiy,
Arazlaganday xuddi.
Qarasangiz turqini
Bilib bo'lmas xulqini.
Yo hammadan xafami?
Shodlikdan yo'q xabari.
Axir u hech kulmasa,

Nimadan qilar maza?
Kulgidan yashnar yurak
Havo, nur, suvday kerak.
Bolalar, xullas kalom,
Menga yoqmas bunday nom.
Surishtirmay tarixin
Yozolmadim ta'rifin.
Kulmasvoy kulgandan so'ng
Yozarman gap kelsa o'ng.



OLIFTA BOLA

Bir bola bordir
Rosa olifta.
Gerdayar nuqul
Turfa qolipda.

Bayram bo'lgandek
Yasangay juda.
Ba'zan ko'rishar
Qo'lin uchida.

Tutar o'zini
Tanho-yu mashhur.
Xulqi-atvori
O'ta takabbur.

Yoki otasi
Amaldormikan?
Bir nimasi bor,
Yo moldormikan?

Ko'plarning undan
Ensasi qotgan.
Eng asosiysi
Obro' yo'qotgan.

Ketaversa u
Bunday holatda,
Bo'lar ekan kim
Bo'lganda katta?



YOQIMSIZ BOLA

Salom bermagan yoqimsiz bola,
Tarbiyasi yo'q boqimsiz bola.

Assalom so'zin bilmagan bola,
Hech zot nazarga ilmagan bola.

Assalom deyish juda oson-ku,
Tana, boshi bor, axir inson-kul

Unaqalarning qorni och qolsin,
Kiyimi qochib yalong'och qolsin.

Unday bolani uyaltiringlar,
Devor burchiga suyaltiringlar.

YERDA YOTAR BURDA NON

Nonni tishlabdi kimdir,
Tishlab tashlabdi kimdir.

Uni qarang, nogahon
Salqin joyda-ko'lkada
Ko'cha cheti-yo'lkada
Yerda yotar burda non.

Non asli aziz-halol
Kim uni qilgan uvol?

Olar kan deb meni kim
Yotar bechora balkim.

Uni tashlagan bola –
Vijdoniga havola.
Yuragi emasday sof,

Yo'qdayin unda insof!
Tutsa nonning uvoli
Ne kecharkin ahvoli?
Qorni och qolmasmikan?
Sulayib qolmasmikan?

Dunyoda insofli ko'p,
Yaxshi-yu odobli ko'p.

Uni qarang, nogahon
Yerda yotar burda non!

Bir bola o'taturib
Burdani qoldi ko'rib:
Asta atrofga boqdi,
Oldi, changini qoqdi.
O'pdi, surdi ko'ziga,
Mos ish qildi o'ziga.

Yashasin shunday bola,
Quyosh-u kunday bola.

DO'STIM NEGA XAFA?

Do'stim mendan

Aynib qoldi

Birdaniga,

Bilolmadim

Sababini

Nedaniga?

Oldinlari

Oramizdan

Qil o'tmasdi.

Do'stligimiz

Mahkam edi,

Qilt etmasdi.

Birdan nifoq

Soldimikan

Yomon o'zga.

Holimizdan

Xabardor-u

G'amxo'r edik.

Inoqlikda

Maktab bo'ylab

Mashhur edik.

Meni ko'rgan -

Zahoti u
O'zgaradi.
Boshqa yoqqa
Ketishga u
Qo'zg'aladi.
Ikkalamiz
Sababi yo'q
Chiqqanmiz po'm.
Ochilmaydi,
Yorilmaydi
Tishlagan mo'm.
Ko'rib turib

Tanimasga
Olar go'yo...
Oramizda
Bormi biror
Chaqimchi yo?
Og'aynilar
Bering axir
Bir maslahat,
Neligini
Bilish uchun
Yozaymi xat?!

BIR YARIM KARIM

Bir sinfda o'qiydi
Ikkita Karim,
Bittasin to'la derlar,
Bittasin yarim.
Hayron qoldim rosayam
Bunday laqabga,
Bilish uchun bir kuni
Bordim maktabga.
- Yarim Karim kimdir, -
deb
So'radim asta.
Yarim Karim degani
Juda barvasta.
Bo'ylarini ko'rsangiz,
Rosa g'ovlagan,
Yarimmas, bir yarim mos
Bunday gavgaga.

Yarim deyishlariga
Bor boshqa asos,
Gavdasimas, ishiga
Qilishgan qiyos.
Kitob, daftar yertilib
Bo'libdi yarim,
Parvo qilmaskan hech
Bu daroz Karim.
To'la Karim degan-chi,
Kichkina, ushoq,
O'qish, ishi joyida
Juda tirishqoq.
Demak, o'qir u yerda
Bir yarim Karim,
Chaqing gapning
mag'zini
Endi, do'stlarim.

BEKORCHIDAN EL BEZOR

Kim hunarsiz, kim bekor,
O'qish, ishdan qilsa or.
Unga loyiq maqol bor:
Bekorchidan el bezor.

Bo'lmas madaniyati,
Na odobi, uyati.
Kulmas orzu-niyati,
Hatto unga ko'cha tor.

Yurar doim armonda,
Ko'rinmasdan maydonda,

Tayyor turar xirmonda,
Barcha deydi: «Nari bor!»

Sanqib yuradi yakka,
Misoli o'g'ri hakka.
O'chdir uyqu, xurrakka
Goho bo'lar dumog'dor.

Yomonlarga qo'shilar,
Yaxshilarga o'shqirar.
Bedor bo'lar qo'shnilar,
Berar dillarga ozor.



Quruq xayol suradi,
G'ash bo'ladi yuradi,
Yoqmas turqi-surati,
Ba'zan bo'lar gajakdor.

Bersin hisob o'ziga,
Boqsin do'stlar ko'ziga,
Kirsa ko'pning so'ziga, –
Bo'lar hamma madadkor.

O'ZINI YO'QOTIBDI...

Bir bola dars chog'ida
Yo'qotibdi o'zini.
So'zlay desa og'zidan
Yo'qotibdi so'zini.
O'zi qayga ketibdi?
Yo'q, o'zi shu joydamish,
Borligi befoydamish.
Qarab turarmish ko'zi,
Yonib turarmish yuzi.
Xullasi, bu qanday gap?
Bor emish bo'lak sabab.
Yuzini ter bosibdi,
Hayajoni oshibdi.
Bu holdan foydalanib,
Qoloqligini tanib,
Darsingni qilmading deb,
Javobni bilmading deb,
Qo'rquv olib qochibdi,
Bor sirini ochibdi.

Kim qilmasa darsini,
Tinglamasdan arzini,
Qo'rquv olib qocharmish,
Tog'-toshlar osharmish.

O'RNAK CHUMOLILAR

Chumolining
Beli bog'liq,
Ishga shaydir
U nechog'liq.

Chumolilar
Bo'lgay chayir,
Mitti-mitti
Qora bayir.

Chalg'ishmaydi
Mehnat payti,
Ularda yo'q
Lavang-daydi.

Adashmaslar
Yurganda yo'l,
Dalda berar
Deya: «ha, bo'l».

O'ljasini
Tishlagancha, -

Yo'l bosarlar
Qancha-qancha,

Bobolari
O'rgatadur:
Topganlari
O'rtadadur.

Uvog'-u don
Terishadi,
Maqsadlarga
Erishadi.

Yashaydilar
Bir alfozda:
Qish g'amini
Yerlar yozda.

Chumolidan
Olmak o'rnak,
Hammaga ham
Juda kerak.



UCHRAB TURAR TULKILIK

Achinarlik, kulgilik
Uchrab turar tulkilik:
Bo'ri bo'lsa-da ajdar,
Baribir tulki aldar,
Avval jilpanglanadi,
Goho yaltog'lanadi.
Etish uchun xushchaqchaq
Va'da qilar qo'zichoq.
Ishonchini qozonar,
Bo'ri laqma quvonar.
Donosiz deb maqtaydi,
A'losiz deb maqtaydi.
Haqdir, deydi, ishingiz,
O'tkir, deydi, tishingiz.
Keltiraman deb o'lja,
Poylatadi bafurja.
Bo'ri yirtqich bo'lsa ham,
Boshi bo'lib turar xam...
Boqsam talay ertakka,
Bo'ri qolgan ermakka...

KIMKI QILSA XARXASHA

Kimki qilsa xarxasha,
Hech kim demas ha, yasha...
Xullas, gapning qisqasi
Qotar ko'pning ensasi.
Yig'maydi o'z o'rnini,
Ho'ngrab tortar burnini.
Tayyor choyin ichmaydi,
Xarxashadan kechmaydi.
Judayam ishi qiziq:
Axtarar qildan qiyiq.

Hattoki aka-uka
Jonlari taka-puka.
Onajoni bechora
Tinchisa deb ovvora.
Turib olib ertalab
Yo'q narsa qilar talab.
Bilmas nima deyishin,
Bilmas nima yeyishin.
Qilaverar xarxasha,
Hech kim demas, ha, yasha.

IKKI QO'LI CHO'NTAKDA

| | |
|--|--|
| Kelar edi palonchi Ikki qo'li cho'ntakda. Bunaqasi uchramas Hatto qadim cho'pchakda. | Quruqmikan cho'ntagi? Ha, bor emish pistasi. Pista chaqish bobida Emish rosa ustasi. |
| Talay ishni bir o'zi Rosa qoyil qilganday. Kelar edi gerdayib Ko'p narsani bilganday. | Nega qo'lin chiqarmas? Dardi bormi qo'lida? Bilolmaydi ko'pchilik O'tib o'ng-u so'lida. |
| Undan ona bechora O'ksigani-o'ksigan. Salom bermas hech kimga Qo'lin qo'yib ko'ksiga. | Buni qarang, dunyoda – Ishlar qiziq ekan-dal Chiqararkan qo'lini Faqat ovqat yeganda. |

OG'ZINI OCHIB QOLDI

(Hazel)

Kecha ko'cha yoqasida
Chuvib qoldi bolalar,
Ne bo'ldi-yu bir xo'rozni
Quvib qoldi bolalar.
Uni qarang,
Epchil ekan
Xo'roz xo'rozlik qildi.
Quvayotgan

Bolalardan
Nax uchtasi yiqildi.
Xo'roz esa
Eng oxiri
Tuynukka qochib qoldi.
Lapashanglar
Tutolmasdan,
Og'zini ochib qoldi...



YURAK KERAK

(Hazilnamo)

Yomg'ir quysa, osmonga

Nima kerak?

– Chelak kerak.

Qor yog'sa-chi, osmonga

Nima kerak?

– Elak kerak.

Oppoq qorni kurashga

Nima kerak?

– Kurak kerak.

Yomg'ir, qordan qo'rqqanga

Nima kerak?

– Yurak kerak!

USHLAMOQCHI UYQUNI

(Hazil)

Ahmad yotar o'rnida

Baqraytirib ko'zini.

Poyloqchiga o'xshatdim

Xuddi uning o'zini.

– Nega uxlamaysan deb?

So'ragandim hol-ahvol, –

Uyquni ushlamoqchi

Bo'lganin aytdi darhol.

Yana tutdim savolga:

– Ushlab nima qilasan?

Shivirlab der ohista:

– Shoshma, keyin bilasan.

Agar ushlab olsam-chi
Sim qafasga solaman.
Kerak bo'lgan mahali
Darrov ishga solaman.

Shuning uchun bechora
Ko'zin yummas ataylab,
Hamon uyg'oq yotardi
Uyqu kelishin poylab...

Ey, bolalar, bolalar,
Uni qaranglar, uni
Ahmadjon xurrak otar
Ushlolmasdan uyquni.

YOLG'IZ QOLIB ZERIKAR

Qizg'anchiqning
O'yinchog'i
Yotar ekan qalashib,
Boshqalardan
O'yinchoqni
 Tortib olar talashib.
Xafa bo'lib
Ketib qolar
Talay-talay sheriklar
O'zi yolg'iz
Qolib keyin
 Rosa-rosa zerikar...

BIRGALASHIB YIG'LAYMIZ!

(Hazil)

Yig'lama ko'p, ukajon,
Yoshing tugab qoladi.
Bizga tarvuz ko'tarib
Oyim kelib qoladi.

Ey, qo'ysang-chi, ukajon,
Kel, ikkimiz uxlaymiz.
Kelganda-chi, oyimlar,
Birgalashib yig'laymiz!



BO'SH KELGANNI YENGARMISH

Bo'lar ekan bir maktabda bir bola,
Ko'rinishda ancha yetuk, mard – bo'la.
Dangasalik uni qurshab olibdi,
Avrab-avrab o'z yo'liga solibdi.
Ishlatmabdi muskulini, kuchini,
Yo'qotmabdi hatto «ikki», «uch»ini.
O'xshab xuddi bog'lab qo'ygan
buzoqqa,
Ketolmabdi u bechora uzoqqa...
Uy vazifa chala yotar yonida,
O'qigani qolmasmish hech yodida.
Erta tongda pishsa hamki uyqusi,
Kelmas ekan hech o'rnidan turgisi.
Yuray desa oyoq-qo'li tolarkan,
Goh o'ziga-o'zi hayron qolarkan.
Shunday qilib dangasalik yengibdi,
Qarshisida g'ozday qaddin egibdi.
Dangasalik – kasallikdir
majmag'il,
Qilar ekan bo'sh kelganni
lanj – og'ir...

XO'P MAZA - O'N LAHZA

(Katta tanaffus)

Qor yog'ar – bo'ralar,
Sinfdan
Siniqqan
Bolalar mo'ralar.
Boshlandi tanaffus,
Kech qolgan der afsus.
Darsidan charchagan,
O'yinga chanqagan –
Bolalar yugurar,
Ketma-ket ulgurar.
Maktabning maydoni,
Chiniqish makoni.
Qor yumshoq poyandoz,
Juda soz, juda soz.
Qiy-chuvlar hech tinmas.
Qo'rqoqlar ko'rinmas.
Bir zumda har yonga
Kattakon maydonga –
To'kilgan yong'oqday,
Ochilgan bodroqday
Bolalar chopishdi.
Sheriklar topishdi.
Go'yoki changishib,
Sovuqni yengishib,
Quvlashar,
Tutolmas
Zuvlashar,
Yetolmas
O'ynashar, to'yishmas.
Bir-birin qo'yishmas.

Kim chaqqon,
O'zag'on?
Juda ko'p epchillar,
Yerda qor g'irchillar.
Irg'ishlar showvozlari,
Semizlar xalloslar...
O'ynashga qorbo'ron,
O'ynashar o'jag'on.
Qorlarga yumalar,
Kimlar sal yumdalar.
Urishar, yarashar.
Hazillar yarashar.
Yayrashdi bir jahon,
Yurishdi tanda qon.
Siniqqan chiniqdi,
Fikrlar tiniqdi.
Tanaffus o'n lahza,
Zab maza, zab maza.
Qor hamon bo'ralar,
Ko'ringlar, bolalar –
G'ayrat-u shashtini.
Yurishar,
Surishar –
Tanaffus
gashtini.
Eh, afsus, eh, afsus,
Tugadi tanaffus.
Qo'ng'iroq chalindi:
Darsga – deb «yalindi».
Boshlandi yana dars.
Yana «besh», yana bahs.

XOLDAN SO'RANG HOL-AHVOL

(Qofiya o'yini)

Xolni ko'rsa kim darhol,
Undan so'rar hol-ahvol.
– Baholaring qalay, Xol? –
Deya berilsa savol,
Kelganday unga malol
Turaverar jim va lol.
Quloq solmas ehtimol?
Oldin edi so'zamol.
Surmasa buncha xayol?
– Darsga bormay qo'yaqol,
Senga bo'libdi uvol, –
Desangiz kular xiyol.
Bizlar deymiz: – O'rtoq, Xol,
Senga yarashmas bu hol,
Yoshlikka bo'lma zavol,
Yashaymiz desang halol,
O'zni yig'ishtirib ol.
Yuragingga g'ayrat sol,
Darslaringdan «4», «5» ol,
Kunlar senga baxt-iqbol.

KO'ZIM VA O'ZIM

(Hazil)

Yashasin, kelsa mehmon,
To'lib ketar dasturxon:

Shokolad, marmaladi...
Hammasi soz, g'alati.

Konfetga qo'l uzatish,
Deyishadi uyat ish.

Menda qunt-iroda bor,
Qilmasam-da e'tibor –

Konfetlar yilt-yilt etar,
Ko'zlarim g'ilt-g'ilt etar.

Tutsam hamki o'zimni,
Eplolmayman ko'zimni...

Qaray desam bir chetga,
Ko'zim og'ar konfetga...



JIYDA JILVALARI

Ariq bo'yi – uvatda
Gulladi jiyda.
Jimir-jimir tovlanar
Quyosh mavjida.

Taralardi jiydaning
Isi-ufoi,
Yoqar edi misoli
Shifobaxsh dori.

Ko'hlik edi judayam
Kumush bargchasi.
Yaltirardi gullari
Oltin parchasi.

Eh, shunchalar zavq bersa
Gulin jilvasi,
Maza bo'lar undan ham
Pishsa jiydasi.

YER CHOPILDI – JAVOB TOPILDI

– Bezovta qilmang, –
Deya onamga,
Dars tayyorlashga
Kirdim xonamga.

Boshimni qashib
Rosa o'tirdim.
Ko'p misollarni
Yozdim, o'chirdim.

Xayol otlari
Uchishib chaqqon,
Tutqich bermayin
Qochdilar har yon.

Masala qurg'ur
Yechilmaydi hech,
Bunday qaragam
Bo'lib borar kech.

Cho'kib o'tirmay
Hovliga chikdim,
So'ng yerni chopib,
Rosa chiniqdim,

Birozdan keyin
Yorishdi ko'nglim,
Go'yo ochildi
Fikringa yo'lim.

Barcha savolga
Javob topildi,
Shu bahonada
Yer ham chopildi.



GERDAYSA ARZIR XO'ROZ

Duch keldi g'ozga xo'roz,
Qarab qolishdi biroz.
Xo'roz sal gerdaygandi,
Bu hol g'ozga tekkandi.
Shundanmikan, jo'rttaga
Jimlik cho'kkan o'rtaga.
G'oz esa lapanglagan,
Xo'roz-chi, alanglagan.
Xo'rozvoy «qu-qu»ladi,
G'oz unga gap uladi.
Birdan u «g'oq-g'oq» dedi.
Uni «maqtanchoq» dedi.
– Boshimda tojim bor deb,
O'zingga berasan zeb.
«Qu-qu, qu-qu» so'z qilib,
Ishingni ko'z-ko'z qilib.
Meni qo'yinglar tanib –
Degandaysan maqtanib.
Kamtarin bo'l-da biroz.
Deya tanqid qildi g'oz.
Xo'rozvoy «qu-qu»lardi,
G'oz ustidan kulardi:
– Maqol bor: «Maqtanma g'oz,
Hunaring judayam oz».
Xo'sh, maqtanchoq ekan kim? –
G'oz loy bo'ldi, qoldi jim...
Rosayam terga botdi.
Yana xo'roz so'z qotdi:
– Menga ayb qo'ymagin,
Gerdayganga yo'ymagin,
Gerdaymayman bekorga,
O'xshamayman beorga.
Erta turish odatim,
Qichqirish bu – soatim,



Yotganlarni g'aflatda
Uyg'otaman, albatta.
O'zim tovuq posboni,
Jo'jalar otaxoni.
Kamtar bo'lsam tulkilar
Tovuqlarni tilkalar...
Dilda g'ayrat, kuchim bor,
El oldida burchim bor.
Zotim dakang xo'rozman,
Tanti akang xo'rozman.
Mard odamlar uchrasa,
Xo'roz deyishar, soz-a?
Nomimni oqlashim shart,
Shundaydir haqiqiy mard.
Nuqsonlaringdan sag'al
Aytsam bo'lasan o'sal.
Xo'roz gapi shu soat
G'ozni etdi xijolat.
Gaping deganday haq-haq,
G'oz esa dedi: «g'oq-g'oq»
O'ylab qarang-a biroz,
Gerdaysa arzir xo'roz!



TINMAGAN QUSHLAR

Don yegan joyga
Qaytib kelar qush.
Go'yo rahmatlar
Aytib kelar qush.

Qarang, bittalab
Uvoqni cho'qir.
Engashib yerga
Duomi o'qir?

Teradi avval
Yiriklarini,
Chaqirib kelar
Sheriklarini.

Atrofga hushyor
Qarab qo'yishar,

Yayrab patlarin
Tarab qo'yishar.

Daraxt shoxiga
Qator qo'nishgay,
Hasharotlardan
Bog'ni qo'rishgay.

Tinib tinchimas
Bog'imda qushlar.
Qani kim mendek
Qushlarni xushlar?

Qushlar uvoq yer,
Boqsam atrofga,
Uvoqni terib
Qolar savobga.

QADRDON QALDIRG'OGH

| | |
|-----------------------|----------------------|
| Qadrdon qaldirg'och, | Ishonar odamlar |
| Qadrdon, | Mehriga. |
| Men unga, u menga | Uchadi, sayraydi, |
| Mehribon. | Tinmaydi. |
| Ko'tinmay ketadi | Yalqovlik nimadi, |
| Qish bilan, | Bilmaydi. |
| Ketganday uzoqqa | Kunlari mehnatdan |
| Ish bilan. | Iborat. |
| Ko'klamda adashmay | Ayvonga qurar in – |
| Qaytadi. | «Imorat». |
| Sayraydi: keldim, deb | Tong chog'i sayraydi |
| Aytadi. | Poyada, |
| Ehtimol u meni | Tinglayman o'ltirib |
| Taniydi. | Soyada. |
| Tilini bilsam, eh, | Tanishlar yoqimtoy |
| Qaniydi. | Ovozi. |
| Qoyilman men uning | Havasim keltirar |
| Zehniga. | Parvozi. |

BULAR NIMA DEGANI?

Tovuqlar der: «qa-qa-qa»,
Ma'nosi bor qanaqa?
Jo'jalarga degani:
– Ketib qolmang uzoqqa!

Musichalar «ku-ku-ku»lab,
Sayrashar ulab-ulab.
Ehtimol bolasiga:
– Tushmang, – degani, – qulab.

Xo'rozning; «qiy-qiy-qiy, quv!»
Qichqirgani qiziq-ku.
– Turinglar, ey, bolalar,
Tong otdi, – degani u.

Mayna sayraydi; «chaq-chaq»,
– Men, – degani, – xush-chaq-chaq.

– Hasharot buyoqqa chiq, –
Deya chaqirar chumchuq.

Ming turda sayrar qushlar,
Ishlar, ko'nglini xushlar.

TURNALAR SAFARI

Ko'klamda keng osmon turlanar,
Safarga chiqadi turnalar.

Turnalar uchishar, uchishar,
Issiq yurt tomonga ko'chishar.

Osmondir keng yo'li-ko'chasi,
Gohida dam olar kechasi.

Uchishar yo'l olib olisga,
Qarashar o'rmon-u polizga.

Boshlig'i ohista «qur-qur»lar,
Degani misoli «yur-yur»lar.

Bilishgay tartibning nafini,
Buzishmas arg'imchoq safini.

Turnalar keltirar ko'klamni,
Keling deb tutaman yelkamni.

BO'RI OCHIBDI MAKTAB

(Kichik ertak)

Bo'ri ochibdi maktab,
Xo'sh, uni kimga atab?
Qarashsaki e'longa:
«Qo'zichoq va quyonga,
Maktab ochiq, marhamat!
Qabul vaqti: hammavaqt.
O'qishar soylik joyda,
O'qish tugar bir oyda
Bo'ri o'zi o'tar dars,
Hech kimga zarar tegmas».

O'qishib ahli quyon
Bo'libdilar ko'p hayron.
Sovliq o'g'li qo'zichoq
O'qishga ko'nmiş, biroq.
Sovliq bermabdi ruxsat,
Kelmagan deya fursat.
Ko'plar ishonmay gapga,
Kelishmabdi maktabga.

Axir, bu ishga, qarang,
Tulki ishlatmiş nayrang:
Maktab ancha to'libdi...
Keyin nima bo'libdi?
Xo'sh, kimlar bitiribdi?
Javob oson
Va ayon:
– Bo'ri yeb bitiribdi...

MAYNA SAYRAR

Mayna sayrar chug'ur-chug'ur,
Balki uni anglash chuqur...

Qush tilini biladi qush,
Og'aynilar kelmasdan bo'sh
Qush tiliga quloq soling,
Zehningiz bor, bilib oling.

Chug'ur-chug'ur sayragani,
Rosa zavqi qaynagani;

Yoki qo'shiq to'qigani,
Yo kitob – dars o'qigani?
Daraxt shoxi partasimon
Dars beruvchi esa bog'bon.

Balki bog'lar unga maktab,
Maktabini sayrar maqtab.

Do'stim, sen ham quvon, qayna,
Lekin darsda bo'lma mayna.

AKA-UKA TAKA

Bo'lar ekan
Ikki taka:
Biri aka,
Biri uka.
Aka
Taka
Suzar gohi,
Chiqqan ekan
Uning shoxi,

Arqonchasin
Uzmasin deb,
Bolalarni
Suzmasin deb,
Kelgunicha
Aka-uka,
Ona echki
Taka-puka.



ANTENNALIK QURT

Shilliq qurt,
U – qiziq qurt.

Yurganida sudralib,
Goh yopishib, suyalib.
Ishlaydi antennasi,
G'alati – antiqasi.
O'zi uchun har safar
Go'yoki xabar topar.

Antennasi juda zo'r,
Lekin yo'q televizor.

ESHAK VA YAXMALAK

(Hazi!)

Minib olib eshakka,
Tushgandim yaxmalakka,
Bor-ku konki – taqasi,
Chiqqan ekan siyqasi.
Bir qadam yurolmadi,
Yiqildi, turolmadi...

Chatoq bo'ldi ishimiz,
Yo'q edi-da, mashqimiz!

PINGVIN VA CHIVIN

Sohilda
Pingvin,
Ustratdi
Bir chivin.

– Bor mening
O'z inim.
Bor akam –
Va inim.

So'radi
Pingvin:
– Ayt, chivin,
Ochig'in.
Zing'ircha
Tan-bo'ying.
Bormi hech
Joy-uying?

Chivinni
Pingvin
Chiqardi
Achchig'in.

Chaqdi-da
Jiz etib,
Qochvordi
G'iz etib.



BIZ KIMMIZ?

Biz adashmiz ikkimiz,
Qani ayting biz kimmiz?

Yoshimiz teng – o'ndamiz,
Uchrashamiz kunda biz.

Yonma-yondir hovlimiz,
Yomonlikdon holimiz.

O'qiymiz bir maktabda,
Bir guruhda, bir sinfda.

Adashtirar ba'zilar,
Rosa kulamiz bizlar.

Ismimizning bor-yo'g'i,
Atigi ikki bo'gin.

Eng birinchi kim derkin?
Bizning ismimiz ...

DALALARIM

Ey, o'zimning
Dalalarim,
 Bepoyonsiz
Chamanlarga
Keng makonsiz
 Tutashgansiz
Tog'larga ham,
Bog'larga ham.
 Yam-yashilsiz,

Eh, yaxshisiz,
Eng asilsiz,
 Serhosilsiz.
Qalbingizning
Qon tomiri
 Jilg'alarmi?
Quyosh sizga
Shu'lalar-la
 Jilmayarmi?

Kun qizigan,
Nur izidan
 Sizga boqib
To'ymagayman
Dil-dilimdan
 Kuylagayman
Ey, o'zimning
Dalalarim,
 Yaqinlar-u
Olislarim,
Taruvg'a kon
 Polizlarim.
Rizq-ro'zimga oshiyonsiz,
Bog'-u tog'siz
 Siz onajon
O'zbekistonsiz.



YASHASIN YAKSHANBA

– Ey, yashasin yakshanba!
Maktabga tushar tanba.
Hammadan ko‘proq-ortiq
Chiqarar akang hordiq! –
Deya bitta o‘g‘ilcha,
Parvo qilmasdan qilcha
Ko‘chada kuni bo‘yi,
Aniqmas mo‘ljal-o‘yi,
Nuqul changga belanib,
Yurar sanqib-elanib.

Yakshanba uning uchun
Faqat bekorchilik kun...
Yakshanbani butunlay
Tushunmabdi bolakay.
Asli, yakshanba kuni
Haftaning sermazmuni.
O‘ylasangiz chinakam
O‘z darsi bor uning ham,
Miriqib kitob o‘qish,
Kerak bo‘lar chiniqish,
A‘zolarga dam berish,
Sayr etish, gullar terish,
Ota-onaga yordam –
Bu katta hordiq va dam.

Hafta rejasin tuzib,
Kim ersa doim o‘zib,
Bu o‘shanga yarasha
Deymiz:

– Yakshanba yasha!

ISMLAR QO'SHIG'I

Hozir-chi nom qo'yish erkin,
Har qadamda o'nlab Erkin.
Agar noming ersa Rahmat,
Olavergin eldan rahmat.
Demak sening isming Qobul,
Yaxshi so'zni etgil qabul.
Aytsin dalil kim Alisher,
Navoiydek yo'zgan u she'r.
Juda ma'qul isming Salom,
Ko'ringanga de assalom.
Desalar-chi seni Dono,
So'zing bersin chuqur ma'no.
Bobong qo'ygan noming Tesha,
O'tkir bo'lgin sen hamisha.
Tug'ilgansiz Hasan-Husan,
Ahil bo'ling siz xususan.
Nomlar talay Qodir, Botir,
El buyurgan ishni qotir.
Aytaversam men nomma-nom.
Kechga qadar bo'lmas tamom.
Har bir kimsa o'z ismiga –
Loyiq bo'lsin o'z jismiga.
She'r to'qigan Po'lat Mo'min:
Ham u – Po'lat, ham u – Mo'min.



МУҲДАРИЖА

| | |
|--|----|
| Salom berganlar | 4 |
| Qushlar erta uyg'onar | 5 |
| Sen erta turib | 6 |
| O'qituvchi berdi-da salom, suhbatini ettirdi davom: | 7 |
| Qizaloqlarmiz | 8 |
| Intilaman maqsadimga | 9 |
| Ona mehri | 10 |
| Siz bizni deysiz, biz sizni deymiz | 11 |
| Umid bilan yashar bobom | 12 |
| Keksalar yonidan o'tganda | 13 |
| Nonvoy o'z nonidan so'zlar dil-jonidan: | 14 |
| Non olib keldim | 15 |
| Dono va mehribon shirinso'z bog'bon: | 16 |
| Do'stlik shartidan | 16 |
| Dalalardan gul terdik | 17 |
| Bo'ladigan bolalar | 18 |
| Do'stim xafa ko'rindi | 18 |
| Menga yoqadi qandday | 19 |
| So'zning qaymog'i | 20 |
| «Siz» demoqlik – siylamoqlik | 20 |
| O'ynab kelsam, o'ylab kelsam... .. | 21 |
| Bajaramiz tezlikda | 22 |
| Kitobim qo'limda | 23 |
| Kerakdir mashq – o'rganish | 24 |
| Oftob zo'r tabib | 25 |
| Turnalarga qoyilman | 26 |
| Gul ko'targan qizaloq | 27 |
| Kamalak qo'shig'i | 28 |
| Navro'z sharofati | 29 |
| Har yil ko'klam keladir | 30 |
| Yashil barglar | 31 |

| | |
|---------------------------------------|----|
| Chamanzor chiroyi | 32 |
| Ochildi gulim | 33 |
| Sumalak pishardi | 33 |
| Maqtanchoq bo'lar qandoq? | 34 |
| Yarashgani yarashdi | 34 |
| Hafsala haqida she'r..... | 35 |
| Kechirim so'rash | 36 |
| Qizg'anchiq va sirpanchiq | 36 |
| Ukam uxlamoqda | 37 |
| Olti alisher | 38 |
| Qochib ketdi | 39 |
| Na maktabda, na uyda yo'q | 39 |
| Devordan oshar u... .. | 40 |
| Shunday ikki bola bor | 41 |
| Beshga «5», ikkiga «2» | 42 |
| Hazildan ketdi zil | 42 |
| Yolg'on gapirib qo'ydim... .. | 43 |
| O'quvchi «u» – uyquchi..... | 44 |
| Bo'lar ekan Kulmasvoy | 45 |
| Olifta bola..... | 47 |
| Yoqimsiz bola..... | 48 |
| Yerda yotar burda non | 48 |
| Do'stim nega xafa | 49 |
| Bir yarim Karim | 50 |
| Bekorchidan el bezor | 51 |
| O'zini yo'qotibdi..... | 52 |
| O'rnak chumolilar | 53 |
| Uchrab turar tulkilik | 54 |
| Kimki qilsa xarxasha | 54 |
| Ikki qo'li cho'ntakda | 55 |
| Og'zini ochib qoldi (hazil) | 56 |
| Yurak kerak (hazilnamo)..... | 57 |
| Ushlamoqchi uyquni..... | 57 |
| Yolg'iz qolib zerikar | 58 |
| Birgalashib yig'laymiz! (hazil) | 59 |

| | |
|--|----|
| Bo'sh kelganni yengarmish | 60 |
| Xo'p maza - o'n lahza (katta tanaffus) | 61 |
| Xoldan so'rang hol-ahvol (qofiya o'yini) | 62 |
| Ko'zim va o'zim (hazil) | 63 |
| Jiyda jilvalari | 64 |
| Yer chopildi - javob topildi | 64 |
| Gerdaysa arzir xo'roz | 66 |
| Tinmagan qushlar | 68 |
| Qadrdon qaldirg'och | 69 |
| Bular nima degani? | 69 |
| Turnalar safari | 70 |
| Bo'ri ochibdi maktab | 71 |
| Mayna sayrar | 72 |
| Aka-uka taka | 72 |
| Antennalik qurt | 74 |
| Eshak va yaxmalak | 74 |
| Pingvin va chivin | 75 |
| Biz kimmiz? | 76 |
| Dalalarim | 76 |
| Yashasin yakshanba | 78 |
| Ismlar qo'shig'i | 79 |

Adabiy-badiiy nashr

POLAT MO'MIN

BO'LADIGAN BOLALAR

Muharrir
Zokir ZAMONOV

Texnik muharrir
Vera DEMChENKO

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Musahhah
Hosiyat IBRAGIMOVA

Kompyuterda sahifalovchi
Feruza BOTIROVA

Bosishga 04.06.2012-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 2,625. Shartli bosma tobog'i 4,41.

Garnitura «Bookman Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 144.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

Litsenziya raqami: AI № 198. 2011-yil 28.08 da berilgan.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43

faks – 273-00-14; web-saytimiz: www.yangiasr.uz

internet-do'kon: www.yangidavri.uz e-mail: info@yangiasr.uz

**“YANGI ASR AVLODI” NASHRIYOT-MATBAA
MARKAZI TAQDIM ETADI:**

Zokir Zamonov, Didora Zuvaytova

“TOP... TOP... TOPISHMOQ”

Bichimi 84x108 1/32

120 bet.

Yumshoq muqova

Bolalarni fikrlashga, topqirlikka oʻrgatadigan topishmoqlar ularni kelajakda jumboqli vaziyatlardan, muammoli holatlardan qiyinchiliksiz chiqishga tayyorlashi shubhasiz. Oʻn bir mavzuni oʻzida mujassamlashtirgan mazkur toʻplam bolalar uchun ajoyib topqirlik mashqi vazifasini bajaradi.

Xudoyberdi Toʻxtaboev

**“SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATI YOKI SEHRGARLAR
JANGI”**

Bichimi 84x108 1/32

384 bet.

Qattiq muqova

Akromjonning bir-biridan qiziq kechmishlarini oʻqib miriqib kulasiz, fantastik lavhalardan hayratga tushasiz, kattaligi togʻdek keladigan qovun-tarvuzlar, qovun ichidagi olam – ajoyibu gʻaroyib shaharlarga sayohat qilasiz. Bu qahramonimizga ham sehrlil qalpoqcha yordamga keladi...

LEV TOLSTOY HIKOYALARI

Bichimi 70x84 1/16

44 bet.

Yumshoq muqova

Oʻzbek va ingliz tillarida

Aziz bolajonlar, biz taqdim etayotgan ushbu kitobda mashhur yozuvchi va dunyo tan olgan adib Lev Tolstoyning eng sara hikoyalari joy olgan. Ular taqqoslab oʻrganish uchun ingliz va oʻzbek tillarida berilgan.

Yosh kitobxonlar hikoyalardan bahra olib, til koʻnikmalarini boyitishadi, degan umiddamiz.